

e-mail: info@uzairways.com
tel: +998 (78) 140-46-23
fax: +998 (71) 236-75-00



UZBEKISTAN
AIRWAYS

www.uzairways.com

Aksiyadorlik jamiyati | Joint-Stock Company

“Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruv
raisining “01” 12 2025 yildagi
915-sonli buyrug‘iga 1-ilova

**«Uzbekistan Airways» AJning mehnatni muhofaza
qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi
SIYOSATI**

Toshkent

0.1. Hujjat haqida ma'lumot.

ISHLAB CHIQUILGAN:

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'limi boshlig'i  25.11.2025-y. K.I. Shadieva
(imzo) (sana)

“Uzbekistan Airways” AJning mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi siyosati “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruvi raisining 2025-yil “01” 12” 915”-sonli buyrug'i bilan amalga kiritiladi.

Hujjat har 5-yilda bir marta ko'rib chiqiladi (yangilanadi).

Ushbu hujjatni qayta ko'rib chiqish “Uzbekistan Airways” AJning hujjatlashtirilgan axborotni boshqarish bo'yicha qo'llanmasi”da belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu hujjatga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qaror “Uzbekistan Airways” AJning boshqa tarkibiy bo'linmalarining fikr-mulohazalari va takliflari, ichki yoki tashqi audit natijalari asosida “Uzbekistan Airways” AJning Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'limi boshlig'i tomonidan qabul qilinadi.

Hujjat joylashgan joy

Mazkur hujjatning asl nusxasi Aviakompaniyaning Umumiy bo'limida (devonxonada) saqlanadi. Ushbu hujjatning “Saqlovchilar ro'yxati”ga muvofiq hisobga olingan nusxalari hujjatlarni boshqarish va nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxslarda saqlanadi.

Mazkur hujjat elektron shaklda Aviakompaniyaning meyoriy hujjatlar elektron kutubxonasida joylashgan.

Agar ushbu Siyosatni qo'llashda hujjatning mazmuniga oid fikr-mulohazalaringizni yoki uni takomillashtirish bo'yicha taklif va istaklaringiz bo'lsa, minnatdor bo'lamiz. Bular keyingi tuzatishlar va tahrirlarni tayyorlashda hisobga olinadi.

Ushbu Siyosatga oid fikr-mulohazalarni “Uzbekistan Airways” AJning MMvaTX bo'limiga yozma ravishda yuborishingizni so'raymiz:

- e-mail: Karina.Shadieva@uzairways.com
- tel: (+ 998 78) 140-47-29
- ichki tel: 61-43

0.2. Mazmuni

№	Sarlavha	Bet
0.1	Hujjat haqida ma'lumot	0-1
0.2	Mazmuni	0-2
0.3	Amaldagi betlar ro'yxati	0-3
0.4	O'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatga olish varaqasi	0-4
0.5	Saqlovchilar ro'yxati	0-4
1	UMUMIY BO'LIM	1-1
1.1	Hujjatning maqsadi	1-1
1.2	Havolalar	1-1
1.3	Atamalar, ta'riflar va qisqartmalar	1-1
1.3.1	Atamalar va ta'riflar	1-1
1.3.2	Qisqartmalar	1-2
2	MAQSAD VA VAZIFALARI	2-1
3	MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA SANOAT XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI MAJBURIYATLAR	3-1
4	YAKUNIY QOIDALAR	4-1

0.3. Amaldagi betlar ro‘yxati

0-Bob		
№ betlar	№ tuzatishlar	Sana
0-1	0	10.12.2025y.
0-2	0	10.12.2025y.
0-3	0	10.12.2025y.
0-4	0	10.12.2025y.
1-Bob		
№ betlar	№ tuzatishlar	Sana
1-1	0	10.12.2025y.
1-2	0	10.12.2025y.
2-Bob		
№ betlar	№ tuzatishlar	Sana
2-1	0	10.12.2025y.
3-Bob		
№ betlar	№ tuzatishlar	Sana
3-1	0	10.12.2025y.
4-Bob		
№ betlar	№ tuzatishlar	Sana
4-1	0	10.12.2025y.

0.4. O'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatga olish varaqasi.

O'zgar tirish №	Asos	Bet raqami			O'zgartirish kiritilgan sana	Kim tomonidan o'zgartirish kiritilgan Imzosi
		o'zgartiri layotgan	yangi	olib qo'yilgan		

0.5. Saqlovchilar ro'yxati

№	№ nusxalar	Saqlovchi
1	1	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'limi
2	2	Elektron versiyasi

1. UMUMIY BO‘LIM

Markaziy Osiyodagi eng yirik aviakompaniyalardan biri bo‘lgan O‘zbekiston milliy aviatashuvchisi “Uzbekistan Airways” AJ ijtimoiy mehnat barqarorligini ta‘minlash tarafdori hisoblanadi.

1.1. Hujjatning maqsadi

1.1.1. “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatining mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi siyosati, (keyingi o‘rinlarda - Siyosat) ish beruvchining O‘zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo‘yicha davlat meyoriy talablariga rioya qilish niyati va majburiyatlarining kafolatlangan bajarilishi to‘g‘risidagi ommaviy hujjatlashtirilgan deklaratsiyasidir.

1.1.2. Ushbu Siyosat “Uzbekistan Airways” AJning mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi strategiyasi, yo‘nalishi, tamoyillari va majburiyatlarini belgilaydi.

1.1.3. O‘zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish tashkilot faoliyatini boshqarish tizimining muhim va ajralmas qismi hamda Aviakompaniyaning barcha xodimlari farovonligining garovidir.

1.1.4. Aviakompaniya barcha faoliyat turlarini amalga oshirishda, ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimlarning hayoti va sog‘lig‘i ustuvorligini tan oladi.

1.2. Havolalar.

Siyosat quyidagilarga muvofiq ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan:

- O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi;
- Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to‘g‘risidagi namunaviy nizom (2025 yil 21 iyuldagi VMning 454-son qarori)

1.3. Atamalar, ta’riflar va qisqartmalar.

1.3.1. Atamalar va ta’riflar.

Aviakompaniya – “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati.

“Uzbekistan Airways” AJ - ustav fondi (ustav kapitali) ma’lum miqdordagi aksiyalarga bo‘lingan tijorat tashkilotidir. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va o‘z mulkida alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining mustaqil balansida hisobga olinadigan ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Aviakompaniyaning tarkibiy bo‘linmasi – bu “Uzbekistan Airways” AJ tashkiliy tuzilmasining birligi (guruh, bo‘lim, departament, filial) bo‘lib, u o‘z faoliyatini aviakompaniya faoliyati doirasida amalga oshiradi.

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi (MMQBT) – bu “Uzbekistan Airways” AJda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi siyosat va maqsadlarni hamda ushbu maqsadlarga erishish tartib-qoidalarini belgilaydigan o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlarning yagona majmuasi bo‘lib, aviakompaniyaning umumiy boshqaruv (menejment) tizimining bir qismidir.

1.3.2. Qisqartmalar.

Qabul qilingan qisqartirish	Qisqartmalarni ochib berish
AJ	Aksiyadorlik jamiyati
MCHJ	Mas’uliyati cheklangan jamiyat
VMQ	Vazirlar Mahkamasi qarori
O‘zR	O‘zbekiston Respublikasi
SMT	Sifat menejmenti tizimi
MMQBT	Mehatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi
MMva TXB	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘limi
O‘zR MK	O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi
ISO	Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot

2. MAQSAD VA VAZIFALAR

2.1. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi siyosatning asosiy maqsadlari:

- Mehnatni muhofaza qilishni boshqarishning samarali tizimini yaratish va doimiy ravishda takomillashtirish orqali xodimlarning mehnat faoliyati jarayonida xavfsizligini ta'minlash asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi;
- Zamonaviy texnika darajasi va fan yutuqlariga mos ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish orqali sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish;
- Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarning oldini olish va profilaktika qilish, ishlab chiqarish jarohatlanishlari hamda kasb kasalliklari bilan bog'liq xavflarni samarali boshqarish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablarining buzilishiga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;
- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi davlat meyoriy-huquqiy hujjatlariga hamda «Uzbekistan Airways» aksiyadorlik jamiyatining mahalliy tartibga soluvchi hujjatlariga qat'iy rioya etish;
- Xodimlar orasida ishlab chiqarishda xavfsiz xulq-atvorning barqaror motivatsion mexanizmini shakllantirish, ularning korxonada yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni oldindan ko'ra bilish va oldini olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

2.2. «Uzbekistan Airways» AJ o'z maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- Texnologik uskunalarning ishonchli, xavfsiz va avariyasiz ishlashini ta'minlash orqali ishlab chiqarish obyektlarida xavfsizlik darajasini oshiradi;
- Xodimlarning hayoti va sog'lig'iga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan, jumladan xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari bilan bog'liq tavakkalchiliklarni kamaytirishni ta'minlaydi hamda amaliy faoliyatda “baxtsiz hodisalarni tekshirish” amaliyotidan “hodisalarni tahlil qilish, xodimlarning xatti-harakatlarida, mehnat sharoitlarida, texnologik uskunar va jihozlar holati bilan bog'liq xavflarni boshqarish” tizimiga o'tishni amalga oshiradi;
- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimini ISO va ILO-OSH xalqaro standartlariga muvofiq ravishda, “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va ishlab chiqarish jarayonlarini inobatga olgan holda takomillashtiradi;
- Ma'muriyat hamda kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan saylangan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil ishtirokida, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazorati samaradorligini amalga oshiradi;
- Xodimlarda ishlab chiqarishda xavfsiz xulq-atvorga nisbatan barqaror motivatsion mexanizmini shakllantirish, har bir xodimning o'z hayoti va sog'lig'i, shuningdek, atrofida mehnat qilayotgan shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun shaxsiy mas'uliyatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni targ'ib qiladi va joriy etadi, ya'ni korporativ xavfsizlik madaniyatini shakllantiradi.

3. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA SANOAT XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI MAJBURIYATLAR

3.1. Ushbu Siyosatda belgilangan maqsad va vazifalarga erishish maqsadida «Uzbekistan Airways» aksiyadorlik jamiyati quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- O‘zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlari hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;
- Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olish hamda ularni profilaktika qilishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish;
- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasida xavf-xatarlarni boshqarish tizimini joriy etish va amalga oshirish;
- Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlash hamda uni doimiy ravishda takomillashtirib borish;
- Aviakompaniyaning barcha darajadagi rahbarlari uchun mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi bo‘yicha shaxsiy javobgarlikni belgilash;
- Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazishni amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida (parvozlarni amalga oshirish, havo kemalariga texnik va yer ustida xizmat ko‘rsatish, binolar va inshootlarni ta’minlash hamda boshqa xizmatlar) zararli ishlab chiqarish omillarini kamaytirish hamda xodimlarni ish joylaridagi mehnat sharoitlari to‘g‘risida xabardor qilish;
- Zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida, shuningdek ifloslanish bilan bog‘liq ishlarda band bo‘lgan xodimlarni maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari bilan o‘z vaqtida ta’minlash;
- Xodimlarni majburiy dastlabki va davriy tibbiy ko‘riklardan (tekshiruvlardan) o‘tkazishni tashkil etish;
- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasida xodimlarning tayyorgarligini yuqori darajada ta’minlash va muntazam qo‘llab-quvvatlash (xodimlarni mehnatning xavfsiz usullari va uslublariga o‘qitish, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablari bo‘yicha bilimlarini tekshirish, yo‘l-yo‘riqlar o‘tkazish), mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya etishga qaratilgan barqaror xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Noqulay mehnat sharoitlari ta’siri natijasida xodimlarga yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan kompensatsiya chora-tadbirlarini amalga oshirish, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar yoki kasb kasalliklari yuzaga kelgan taqdirda xodimlarni rehabilitatsiya qilish, shuningdek xodimlar uchun sog‘lomlashtirish va sanatoriy-kurort davolanish bo‘yicha maxsus dasturlarni joriy etish;
- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik oldida ochiq hisobot berish, ushbu Siyosatni ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida, ish beruvchi va aviakompaniya xodimlari manfaatlarini ifodalovchi kasaba uyushma qo‘mitasi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot doirasida amalga oshirish.

4. YAKUNIY QOIDALAR

4.1. Ushbu Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi Siyosat «Uzbekistan Airways» aksiyadorlik jamiyatining barcha xodimlari, pudratchilari va hamkorlari uchun majburiy hisoblanadi.

4.2. Siyosat talablarini buzish Aviakompaniyaning amaldagi meyorlariga muvofiq xodimlarga nisbatan intizomiy yoki shartnomaviy qoidabuzarlik sifatida ko‘rib chiqiladi.

4.3. Ushbu Siyosat «Uzbekistan Airways» AJning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi hamda jamiyat xodimlarining oson tanishishi uchun ichki axborot kanallari orqali tarqatiladi. Doimiy ravishda yangilanib turiladi.